

SHAROF BOSHBEKOV PYESALARIDA FOLKLORIZM

Hamroyeva Gulmira Tilavna

JDPU o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sharof Boshbekovning “Temir xotin”, “Musofir bo‘lma guncha”, “Tentak farishtalar” kabi pyesalaridagi xalq og‘izaki ijodining turli janrlaridan foydalanganligi va bu maqol, topishmoq, marsiya va xalq qo‘shiqlaridan obrazlarning individual xarakterlarini yotirishdagi funksiyasi hamda toponimik rivoyatlarning syujet chizig‘idagi ahamyati haqida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar. Marsiya, toponimik rivoyat, Voybolam, Oshiq G‘arib va Paranji, ota allasi, Qo‘tirbuloq, so‘gal

АБСТРАКТНЫЙ

В данной статье рассматривается использование Шарофом Бошбековым различных жанров фольклора в своих пьесах, таких как «Железная женщина», «К сожалению, чужой», «Тентак Фариштадар» и функция этих пословиц, загадок, причитаний и народных песен в раскрытии отдельных характеров. персонажей и топонимических повествований. Сделаны научные выводы о значении сюжетной линии.

ABSTRACT

This article examines Sharof Boshbekov’s use of various genres of folklore in his plays, such as “The Iron Woman,” “Unfortunately Stranger,” “Tentak Farishtalar” and the function of these proverbs, riddles, laments and folk songs in revealing individual characters. characters and toponymic narratives. Scientific conclusions have been drawn about the meaning of the storyline.

Keywords. Marcia, toponymic narrative, Voybolam, Ashiq Gharib and Paranji, father allasi, Kotyrbulok, sogal

Xalq donolig,donishmandligi deya nomlanuvchi folklor ming yillar davomida ijodkorlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ular o‘z asarlarini yaratishda ko‘p bora xalq og‘izaki ijodiga murojaat etishgan. Buning natijasida davr va millat tanlamaydigan, kitobxonlar qo‘lma-qo‘l qilib o‘qiydigan durdona asarlar vujudga kelgan. Jumladan, Firdavsiyning “Shohnoma” asari, Alisher Navoiyning “Xamsa”dostonlari, Fazlulloh Hamadoniyning “Jome ut-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” kabi tarixiy asarlarida, eng qadimgi davrlar tarixini izchil yoritishda, folkloarning epik janrlaridan unumli foydalangan.

Xalq og‘izaki ijodining bebahosidan xazinasidan unumli foydalanish an’anasi dramatur Sh.Boshbekov ijodida ham salmoqli o‘rin egallaydi. Sof o‘zbekona xarakterlar yaratish uchun dramaturg o‘zbekona maqollarni qahramonlar nutqida o‘rinli qo‘llaydi. Bu bilan ijodkor nutqning g‘oyaviy mazmunini qisqa jumlalarda ifodalash va milliylik ruhi sezilib turuvchi obrazlar yaratish kabi maqsadlarini birvarakayiga amalga oshiradi. Maqol janri tematik jihatdan nihoyatda rang-barang va boy ekanligi va ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolardan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me’yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy qarashlardan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatlarini mavzu ko‘lami jihatdan qamrab oladi.

“Vafodor” kinoqissasida Saodat aya tilidan –“Yurganga yo‘l yaxshi”, Saodat ayaning katta qizi Salomat obrazi esa - “Yeganim oldimda, yemaganim ketimda”, “Tirigining mazasi yo‘q o‘ligining a’zasi” - kabi maqollarni qo‘llaydi. Salomat kuyoviga nisbat berib qo‘llagan – “Tirigining mazasi yo‘q, o‘ligining a’zasi” maqoli butun asarning ma’zmunini anglashga xizmat qiladi. Bu maqol ko‘proq Bo‘rivoyga obraziga muvofiq keladi.

Saodat ayaning ikkinchi qizi Adolatning turmush o‘rtog‘i Husan har gapiga maqolni teskari qo‘llaydigan odati bor edi.

“Hamma narsaning o‘z vaqtি soati bor, buning vaqtি hozirga to‘g‘ri kepti. shungayam qozi go‘ri – otaxonami?”. Nima dedingiz oyi?

Saodat aya kulimsirab o‘tirar, negaki kyuovining maqol so‘zlarini almashtirib aytish odatidan xabardor edi.[Sharof Boshbekov. Musofir bo‘lmaquncha. “Yangi asr avlodи”, 2011-yil. 139-bet]

“Tentak farishtalar” mistik komediyasida ham folklorning lirk janriga ko‘proq murojaat qiladi. Jumladan, “Voymbolam” deya nomlangan kayvani ayol obrazi. U xalq to‘ylarida dasturxonchilik, go‘yandalik qiladi va dori sepilgan paxta dalasida ishlayverib, bepusht bo‘lib qolgan edi. Bolasi turavermagach dard-alamini marsiyalarda kuylab marsiya aytuvchiga aylangan. Ichidagi farzandsizlik iztirobi uni ruhan yemirib, ruhiy xastalar shifoxonasiga tushishiga sabab bo‘ladi. Kasalxonada ham marsiyalarni o‘zgartirib kuylab yuradi.

Bo‘lsin, bolam, dunyoda,

Bardoshing metingina,

Bo‘riga o‘lja emish

Qo‘zichoq – tekingina.

Bu emas, u dunyodan

Qidiray bekingin-a,

Ayt, qismat, ne qasding bor,

Shivirlab sekingina.

“Voybolam”ning marsiyalarida Boshbekovona uslubiga xos bo‘lgan kulgi tagida fojea bor. Quyidagi marsiyani ham kechasi uyqusi kelmay hirgoyi qilib yuradi.

Ko‘zlarimni o‘ydilar, voy bolam,
Birin-ketin so‘ydilar, voy bolam.
Shahid bo‘lib ketganlarni, voy bolam,
Eslamay ham qo‘ydilar, voy bolam.

“Oshiq G‘arib” bilan “Paranji” kampidan kechasi nega uxlamayotganini so‘raganda. U donishmandona; “Ha, bolaginalarim-a! Kimning aravasida o‘tirsang, o‘shani ashullasini aytasan-da. Bizning qismatimiz shu – ayt desa, aytaveramiz!

“Voybolam” yuqoridagi marsiyada sho‘ro davrida qatl qilingan jadid bobolarimizni nazrda tutgan bo‘lsa, keying gapida sobiq tuzumning majburlovchi siyosatini va xalqimizning fe’li keng va yuvoshligini nazrda tutadi. Yana bir o‘rinda ushbu obrazni o‘ta mehribonligini hatto chivining ham o‘limiga marsiya aytgani beriladi.

*Qayrog‘ochim qayrildi,
Voy bolam, voy bolam.
Onang sendan ayrildi,
Voybolam, voy bolam...
Nola qildim - g‘azal bo ‘ldi
Voy bolam, voy bolam.
Yotar joying asl bo ‘ldi,
Voy bolam, voy bolam.*

Pyesada ikki sevishgan qahramonlar “Oshiq G‘arib” va mashuqa “Paranji”ning izardobli hayoti, jamiyatda baxtiga yeta olishmagan oshiqlar ruhiy xastalar shifoxonasida topishgani bayon etiladi va ular tilidan muhabbatdan mast bo‘lganliklarini ifodalovchi qo‘shiqlar kuylanadi.

“Paranji”:

Bog ‘bon ekan berahim,

G ‘uncha gulimni uzdi.

Bemahal kelgan hijron,

Yurak bag ‘rimni ezdi.

Oshiq G ‘arib”:

O ‘tirganda to ‘r yarashgan,

Yurganida yo ‘l yarashgan.

Oy to ‘lishgan oqshomlarda,

Qo ‘llariga gul yarashgan

Ikkalasi:

Oshiq so ‘zdan adashadi,

Adashgani yarashadi.

Katta-kichik havas bilan,

Bular kim deb qarashadi.

“Tentak farishtalar” pyesasida xalq og‘izaki ijodining afsona janrini badiiy qoliplovchi vosita sifatida kiritadi. “Juna” tilidan aytilgan afsonaning qisqacha mazmuni shunday edi.

- Bir zamonlar majnuntol qaddi tik, mag‘rur daraxt bo‘lgan ekan. O‘sha zamonlarda bir yigit bilan qiz yashar ekan. Sizlarga o‘xshab bir-birini nihoyatda sevar, yer-u ko‘kka ishonmas ekan.

- Vaqtlarini ko‘pincha shu majnuntol soyasida o‘tkazishar ekan, - deb davom qildi “Jumna”.

- Bir kuni majnuntol sevib qolibdi: qizni ham, yigitni ham. Sevgi bor joyda rashk bor. Shunday qilib, majnuntol ularni bir biridan rashk qiladegan, qizg‘anadegan bo‘lib qolibdi.

-Shu-shu, majnuntolning bir umr boshi egik, ho‘ng-ho‘ng yig‘lab yasharkan... - deb “Juna” ertagiga yakun yasadi.

Asarda ertak deya atalgan ushbu parcha, biznincha, folklorning afsona janiriga oiddir. Chunki ertakda hayot haqiqati hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanadi. Afsonalar esa sof xayoliy uydirmalar asosida yaratiladi. Afsonadagi voqealar xuddi real hayotda bo‘lgandek ishontiruvchi tasvirlar, xulosalar keltiriladi. Jumladan, “Loviya”, “Toshbaqa”, “Ilon” haqidagi afsonalar bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xalq og‘zaki ijodi yozuvchilarning g‘oyaviy-badiiy jihatdan o‘sishida, uslub xilma-xilligini yaratishda katta ijodiy məktəb bo‘lib qoldi. Yozma adabiyotda o‘z ifodasini topgan folklor syujetlari va motivlari yozuvchi mahorati tufayli qayta sayqal topib, original asar sifatida yozma adabiyot mulkiga aylandi. So‘z san’ati bilan xalq og‘zaki ijodining o‘zaro ta’siri va munosabati xususida so‘z borganda, ijodkor folklor asarlariga ko‘r-ko‘rona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, o‘z ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi ko‘zda tutiladi. Sharof Boshbekov pyesalarida folklorning maqollarni qahramonlarning nutqiy ixchamligi uchungina qo‘llamaydi balki, o‘zbekona xarakter yataratish uchun ham foydalanadi. Lirik va epik turlaridan ham o‘z o‘rnida ichki kechinmalarini ifodalashda va syujetni qoliplovchi vosita sifatida qo‘llaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konflikt>
2. Sharof Boshbekov. Musofir bo‘lmaquncha. “Yangi asr avlodi”, 2011-yil. 139-bet
3. Sh.Boshbekov – Musofir bo‘lmaquncha , “Tentak farishtalar” kinoqissa; “Yangi asr avlodi”, 2011-yil. 254-bet